



MA'NAVY QADRIYATLARNING KOMIL INSONNI TARBIYALASHDAGI O'RNI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22236075>

Nizomiy nomidagi O'zMPU Tarix fakulteti "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Alimuxammadova Gulsevar Xaydar qizi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ma'naviy qadriyatlarning shaxs kamoloti va komil insonni tarbiyalashdagi o'rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Insonning ma'naviy-axloqiy qiyofasi shakllanishida milliy va umuminsoniy qadriyatlar, tarixiy xotira, vatanparvarlik, halollik, adolat, mehr-oqibat, mas'uliyat va insonparvarlik kabi fazilatlarning ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, yosh avlod tarbiyasida oila, ta'lim muassasalari va ijtimoiy muhitning ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishdagi vazifalari ko'rib chiqiladi. Maqolada komil inson tushunchasining mazmuni hamda ma'naviy tarbiyaning zamonaviy ta'lim jarayonidagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviy qadriyatlar, komil inson, ma'naviy tarbiya, axloq, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, yoshlar tarbiyasi, vatanparvarlik, ma'naviyat, ma'rifat..

Аннотация: В статье анализируется роль духовных ценностей в формировании гармонично развитой личности и воспитании совершенного человека. Раскрывается значение национальных и общечеловеческих ценностей, исторической памяти, патриотизма, честности, справедливости, милосердия, ответственности и гуманизма в формировании духовно-нравственного облика человека. Особое внимание уделяется роли семьи, образовательных учреждений и социальной среды в воспитании молодого поколения. Также рассматривается содержание понятия «совершенный человек» и значение духовно-нравственного воспитания в современном образовательном процессе

Ключевые слова: духовные ценности, совершенный человек, духовное воспитание, нравственность, национальные ценности, общечеловеческие ценности, воспитание молодежи, патриотизм, духовность, просвещение.

Abstract: This article analyzes the role of spiritual values in the development of a well-rounded personality and the upbringing of a morally mature person. The importance of national and universal human values, historical memory, patriotism, honesty, justice, compassion, responsibility and humanism in the formation of an individual's spiritual and moral qualities is discussed. The article also examines the role of family, educational



institutions and social environment in developing spiritual values among young people. The content of the concept of a “perfect person” and the importance of spiritual and moral education in modern education are also explored.

Keywords: *spiritual values, perfect person, spiritual education, morality, national values, universal human values, youth education, patriotism, spirituality, enlightenment.*

Insoniyat taraqqiyoti tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, har qanday jamiyatning rivojlanishida moddiy omillar bilan bir qatorda ma'naviy omillar ham muhim o'rin egallaganini ko'rish mumkin. Jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy taraqqiyoti insonning ma'naviy dunyosi, dunyoqarashi va axloqiy fazilatlari bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli yosh avlodni har tomonlama yetuk, bilimli, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sadoqatli va jamiyat oldidagi mas'uliyatini angalaydigan shaxs sifatida tarbiyalash bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Ma'naviy qadriyatlar insonning hayotga munosabatini, xulq-atvorini, atrofdagilar bilan munosabatini va jamiyatdagi o'rnini belgilashda muhim mezon vazifasini bajaradi. Halollik, rostgo'ylik, adolat, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, mehr-oqibat, vatanparvarlik, ilmga intilish va mehnatsevarlik kabi fazilatlar xalqimizning ko'p asrlik ma'naviy tajribasi davomida shakllangan. O'zbekiston sharoitida ma'naviy qadriyatlarni asrab-avaylash va yosh avlod ongiga singdirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki globallashuv sharoitida turli madaniy, axborot va mafkuraviy ta'sirlar kuchayib borayotgan bir paytda yoshlarning

mustahkam ma'naviy immunitetga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'naviy qadriyatlar — inson va jamiyat hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan axloqiy, madaniy, ilmiy, estetik va ijtimoiy mezonlar majmuasidir. Ular avloddan avlodga o'tib, jamiyatning ma'naviy tajribasini saqlab qolishga xizmat qiladi, qadriyatlar insonning o'z xatti-harakatlarini baholashi, yaxshilik va yomonlikni farqlashi, o'z burchi va mas'uliyatini anglashi uchun ma'naviy mezon bo'lib xizmat qiladi. Masalan, halollikni qadriyat sifatida qabul qilgan inson o'z manfaatidan ko'ra to'g'rilikni ustun qo'yishga harakat qiladi. Vatanparvarlikni qadrlagan shaxs esa o'zining jamiyat va Vatan oldidagi burchini chuqurroq anglaydi, ma'naviy qadriyatlar mazmuniga milliy urf-odatlar, an'analar, tarixiy xotira, ona tiliga hurmat, ajdodlar merosini qadrlash, ilm-ma'rifatga intilish, insonparvarlik va ezgulik kabi tushunchalarni kiritish mumkin. O'zbek xalqining ma'naviy merosida ma'naviy qadriyatlar masalasi juda qadimiy ildizlarga ega. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar o'z asarlarida insonning axloqiy kamoloti, ilm va tarbiyaning ahamiyati haqida qimmatli fikrlar bildirganlar. Komil inson



tushunchasi Sharq tafakkurida alohida o'rin tutadi. Komillik faqatgina insonning bilimli bo'lishi bilan cheklanmaydi. Haqiqiy komillik bilim, axloq, ma'naviyat, tafakkur, iroda va ezgu amallarning uyg'unligida namoyon bo'ladi. Alisher Navoiy ijodida inson kamoloti masalasi muhim mavzulardan biri hisoblanadi. Uning asarlarida ilmiy, odobli, saxovatli, adolatli va xalq manfaatini o'ylaydigan inson ideal shaxs sifatida tasvirlanadi. Bu qarashlar bugungi tarbiya jarayonida ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Komil insonni tarbiyalashdan asosiy maqsad jamiyatga foydali, mustaqil fikrlaydigan, o'z qarashlariga ega, shu bilan birga boshqalarning huquqi va manfaatlarini hurmat qiladigan shaxsni shakllantirishdir. Bunday shaxs o'z xatti-harakatlari uchun javobgarlikni his qiladi, qiyinchiliklarga bardosh bera oladi va o'z oldiga qo'ygan maqsadlari sari intiladi. Shu nuqtayi nazardan, ma'naviy qadriyatlar komil inson tarbiyasining asosiy poydevorlaridan biridir. Yoshlar jamiyatning eng faol va istiqbolli qatlamidir. Ularning dunyoqarashi va ma'naviy qiyofasi mamlakatning kelajakdagi taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli yoshlarni ma'naviy jihatdan yetuk qilib tarbiyalash ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biridir. Bugungi kunda yoshlar katta hajmdagi axborot oqimi ichida yashamoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari orqali turli xil g'oyalar tez tarqalmoqda. Bunday sharoitda yoshlarning har qanday

axborotni tanqidiy tahlil qila olishi, foydali va zararli ma'lumotlarni farqlashi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanishi muhimdir. Ma'naviy qadriyatlar yoshlarni turli salbiy ta'sirlardan himoya qiluvchi ma'naviy mezon sifatida xizmat qilishi mumkin. Masalan, oilaga hurmat, Vatanga sadoqat, mehnatsevarlik, mas'uliyat va insonparvarlik kabi qadriyatlar yoshlarning hayotiy qarorlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, yoshlar tarbiyasida faqatgina nazariy tushuntirish bilan cheklanib qolmaslik kerak. Ma'naviy qadriyatlar kundalik hayotdagi amaliy faoliyat orqali ham shakllantirilishi lozim. Yoshlarning jamoat ishlarida ishtirok etishi, kitob o'qishi, tarixiy obidalar va muzeylarga tashrif buyurishi, turli ma'rifiy tadbirlarda qatnashishi ularning dunyoqarashini kengaytiradi. Insonning dastlabki tarbiyasi oilada boshlanadi. Bola ota-ona, buvi-buva va boshqa oila a'zolarining xatti-harakatlarini kuzatish orqali yaxshilik, hurmat, mehr, mas'uliyat va mehnat kabi tushunchalarni anglay boshlaydi. Oiladagi sog'lom ma'naviy muhit farzand tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ota-onaning bir-biriga hurmati, farzandga bo'lgan e'tibori, halolligi va mehnatsevarligi bolaga bevosita namuna bo'ladi, ma'naviy tarbiya faqat ta'lim muassasasining vazifasi emas. Oila va ta'lim muassasasi hamkorligi orqali tarbiya samaradorligini oshirish mumkin. Ota-onalar farzandining qiziqishlari, do'stlari, internetdan foydalanish madaniyati va ta'limdagi faoliyati bilan qiziqib borishi lozim.



Oilada milliy urf-odat va an'analarni o'rgatish ham ma'naviy tarbiyaning muhim jihatlaridan biridir. Kattalarni hurmat qilish, kichiklarga g'amxo'rlik ko'rsatish, mehmondo'stlik, qo'ni-qo'shnichilik munosabatlari kabi qadriyatlar yosh avlodning axloqiy qiyofasini shakllantirishga xizmat qiladi. Ta'lim va tarbiya bir-biridan ajralmas jarayonlardir. Bilimli, ammo axloqiy mas'uliyatni his qilmaydigan inson jamiyat taraqqiyotiga kutilgan darajada hissa qo'sha olmaydi. Shu sababli ta'lim jarayonida bilim berish bilan birga ma'naviy-axloqiy tarbiyaga ham e'tibor qaratish zarur. Pedagog o'quvchi va talabalarga nafaqat bilim beruvchi, balki ularga shaxsiy namuna ko'rsatuvchi tarbiyachi hamdir. O'qituvchining odobi, muomala madaniyati, adolatlilik, kasbiga bo'lgan munosabati o'quvchilarga bevosita ta'sir qiladi, dars jarayonida tarixiy shaxslar, buyuk mutafakkirlar va xalqimizning ma'naviy merosidan foydalanish yoshlarning milliy o'zligini anglashiga yordam beradi. Ayniqsa, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy kabi mutafakkir va ma'rifatparvarlarning hayoti hamda ilmiy-ma'rifiy faoliyati yoshlar uchun muhim tarbiyaviy namuna bo'la oladi. Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida tarbiya masalasiga katta e'tibor qaratgan. Uning qarashlarida insonning axloqiy sifatlari jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda talqin qilinadi. Bu fikrlar bugungi kunda ham

ta'lim-tarbiya jarayonida muhim metodologik ahamiyatga ega. Ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligi muhimdir. Milliy qadriyatlar xalqning tarixi, tili, madaniyati va urf-odatlarini aks ettirsa, umuminsoniy qadriyatlar butun insoniyat uchun umumiy bo'lgan ezgulik, tinchlik, adolat, inson huquqlari va bag'rikenglik kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi. Yosh avlod o'z milliy qadriyatlarini chuqur anglagan holda boshqa xalqlarning madaniyati va an'analarga ham hurmat bilan qarashi kerak. Bu esa bag'rikenglik va madaniyatlararo muloqotni rivojlantiradi. Milliy qadriyatlarni asrash zamonaviylikdan voz kechish degani emas, aksincha, milliy meros va zamonaviy bilimlarni uyg'unlashtirish orqali barkamol shaxsni tarbiyalash mumkin. Bugungi yosh bir vaqtning o'zida o'z tarixini yaxshi bilishi, zamonaviy fan va texnologiyalarni egallashi, mustaqil fikrlashi hamda umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qarashi zarur. Vatandarlik ma'naviy qadriyatlarning muhim ko'rinishlaridan biridir. Vatanga muhabbat faqatgina so'z bilan emas, balki insonning kundalik faoliyatida namoyon bo'ladi. Halol mehnat qilish, yaxshi o'qish, jamiyatga foydali bo'lish, qonunlarga rioya qilish va o'z kasbini puxta egallash ham Vatanga xizmat qilishning amaliy ko'rinishlaridir. Yoshlar ongida Vatanga daxldorlik hissini shakllantirishda tarixiy xotiraning o'rnini katta. Ajdodlarimizning ilm-fan, madaniyat va davlat boshqaruvidagi



yutuqlarini o'rganish yoshlarning milliy g'ururini oshiradi. Biroq vatanparvarlik boshqa xalqlarga nisbatan salbiy munosabatni anglatmaydi. Haqiqiy vatanparvarlik o'z Vatanini sevish bilan birga boshqa xalqlar va madaniyatlarga hurmat bilan munosabatda bo'lishni ham nazarda tutadi. Ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari Yoshlarning ma'naviy dunyosini boyitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlardan samarali foydalanish mumkin. Jumladan, munozara, bahs, loyiha faoliyati, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, rol o'yinlar va amaliy mashg'ulotlar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashi rivojlantiriladi. Masalan, "Halollik nima uchun muhim?", "Vatanparvarlikni amalda qanday namoyon qilish mumkin?", "Insonning jamiyat oldidagi mas'uliyati nimadan iborat?" kabi savollar asosida tashkil etilgan munozaralar yoshlarning axloqiy tushunchalarini chuqurlashtirishga yordam beradi. Shuningdek, kitobxonlikni rivojlantirish ham ma'naviy tarbiyaning samarali vositalaridan biridir. Badiiy va ilmiy adabiyotlarni o'qish insonning tafakkurini rivojlantirib, turli hayotiy vaziyatlarni anglash imkonini beradi. Ma'naviy tarbiya jarayonida majburlashdan ko'ra, shaxsiy namuna va ijobiy motivatsiya samaraliroq natija beradi. Yoshlar ma'naviy qadriyatlarni

faqatgina "kerak" bo'lgani uchun emas, balki ularning hayotdagi ahamiyatini tushungan holda qabul qilishi muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, ma'naviy qadriyatlar komil insonni tarbiyalashning muhim va ajralmas asoslaridan biridir. Insonning ma'naviy qiyofasi uning bilim darajasi bilangina emas, balki axloqi, dunyoqarashi, mas'uliyati, Vatanga va jamiyatga munosabati bilan ham belgilanadi. Komil insonni tarbiyalash jarayonida oila, ta'lim muassasasi va ijtimoiy muhitning o'zaro hamkorligi katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, yoshlarning ma'naviy dunyosini boyitish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish bugungi ta'limning muhim vazifalaridan biridir. Ma'naviy qadriyatlar yoshlarni halollik, adolat, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu sababli ma'naviy tarbiyani ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida izchil davom ettirish zarur. Bugungi globallashtirish sharoitida yoshlarning milliy o'zligini anglashi bilan birga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida voyaga yetishi jamiyat taraqqiyoti uchun muhim omildir. Ma'naviy jihatdan yetuk avlod — mamlakatning barqaror rivojlanishi va kelajagining eng muhim kafolatlaridan biridir.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. — Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
3. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011.
4. Pedagogika: oliy ta’lim muassasalari uchun darslik. — Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti.
5. Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016.